



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№6(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 166 sahifa,
5-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



MUNDARIJA

Bitiruvchi talabalarning qadriyatlar tizimining psixologik xususiyatlari	10
<i>Abdulazizova Muslima, Abdurasulova Sevinch, Ikromova Aziza, Iskanderova Sayora</i>	
Oila va ta'lim tizimida raqamli xavfsizlik madaniyatini shakllantirish va uning psixologik omillari.....	14
<i>Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Yo'lchiyeva Zarinabonu Sanjarali qizi</i>	
Ta'lim tizimida sun'iy intellekt texnologiyalarining o'rni	18
<i>Abdullayeva Arofatxon Abduvaxobovna, Mirzahamdov Shahriyor Botir o'g'li</i>	
O'quvchilarni sport musobaqalariga tayyorlashda jismoniy tarbiya o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasining tarkibiy tuzilmasi va rivojlanish mexanizmlari	22
<i>Abduraximov Ziyodullo Xojakbar o'g'li, Tuxtapulatov Shahobiddin Nuriddinovich, Nasimov Ulug'bek Orif o'g'li</i>	
Ta'limni raqamli transformatsiyalash sharoitida o'quv jarayonini tashkil etishning integratsion shakllarini qo'llash metodikasi.....	28
<i>Allamova Shoxista Shavkat qizi</i>	
Surxon vohasida sog'liqni saqlash tizimi: muammolar va yechimlar (Sherobod tumani misolida, 1925–1945-yillar).....	33
<i>Allamurotov Asadbek Baxtiyor o'g'li</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida kasbga yo'naltirish tizimini takomillashtirish	37
<i>Axmedova Muxabbat Axmedovna</i>	
Ko'p o'zgaruvchili funktsiyaning oraliq qiymatlari haqidagi teoremlar va ularning isbotlari	42
<i>Boqiyev X. X., Muxtorova Sevinch Asad qizi, Yuldoshova E'zoza Ravshan qizi</i>	
Bo'lajak mutaxassislarining huquqiy tafakkurini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari.....	46
<i>D. M. Xolnazarova</i>	
Oilaviy tarbiya samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlar: tajriba-sinov natijalari asosida	49
<i>Ibragimova Aziza Toshniyazovna</i>	
Bo'lajak tabiiy fanlar o'qituvchilarining metodik kompetentligini shakllantirishda interaktiv integratsiyaning roli	55
<i>Jo'rayeva Xushro'ya Yaxyoxon qizi</i>	
Corrective Feedback in Foreign Language Learning Acts as a Vital Tool for Improving Accuracy With Research Indicating.....	58
<i>Kamalova Dilnoza Kurbanbayevna</i>	
Doping va halollik masalasi: sportdagi dolzarb muammo.....	64
<i>Kobilov Sobir Donakulovich</i>	
Yunon-rum kurashi bilan shug'ullanuvchi sportchilarning teknik va taktik harakatlarini takomillashtirish usullari.....	69
<i>Muhtorov Abdusattor Abdupatto o'g'li</i>	
3-4 yoshli bolalarda nutqning grammatik tuzilishini shakllantirishning psixolingvistik asoslari	75
<i>Rasulova Xulkaroy Abduhalil qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda gender identifikatsiyasini rivojlantirishda ota-onalar bilan ishlashning mobil ilovaga asoslangan innovatsion modeli	80
<i>Razzoqova Mahliyo Qosimjonovna</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida geografiya fanining zamonaviy metodik yondashuvlari va o'qitishning samaradorligi.....	84
<i>Sunnatillayeva Zarina Sulaymon qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning samaradorligini oshirish usullari	88
<i>Usmonov Salohiddin, Jo'rayeva Rayhona</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining konfliktologik kompetentligini rivojlantirish konsepsiyasi	94
<i>Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Zaripova Xolida Baxtiyor qizi</i>	
O'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning interfaol metodlari.....	100
<i>Zokirov Mirzaraxim Abdualiyevich</i>	



O'quv jarayonida innovatsion baholash texnologiyalarining ilmiy-pedagogik mazmuni	103
<i>Sobirova Marjona Shavkat qizi</i>	
Taekvondochilarning musobaqa davrida hujumkorlik jihatlarini oshirish	110
<i>Abdulfattoyev Abrorjon Abduraxmon o'g'li</i>	
Gender yondashuv asosida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari.....	114
<i>Shokirova Hilola Abduraxmon qizi</i>	
Ingliz tilida tinglab tushunish malakasini rivojlantirishda raqamli ta'limning samaradorligi	120
<i>Aytimbetova U. T.</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish...	124
<i>Axmedova Nazokat Erkinovna</i>	
"Inklyuziv ta'lim. gospital pedagogika" fanida dasturiy-metodik ta'minotning mazmuniy-texnologik va monitoring-dagnostik komponentlari.....	128
<i>Azamxonov Baxodir Sayitkamolxonovich</i>	
Ingliz tilida og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda 5–6-sinf o'quvchilari uchun samarali usullar	132
<i>Rajabova Zarafshon Davronovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy nutq madaniyatini shakllantirishning innovatsion-metodik asoslari	135
<i>Tuxtayeva Mehriyo Shavkatovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda sifat so'z turkumini o'rganish mazmuni.....	140
<i>Usmonova Gulnoza Jaloliddin qizi</i>	
Образность современной медицинской терминологии	144
<i>Дулдулова Наргиза Ашимовна, Мирзаахмедова Нигора Ашимовна</i>	
Развитие исследовательской компетентности младших школьников посредством межпредметной проектной деятельности.....	148
<i>Мухтарова Лобар Абдиманнабовна, Нормаматова Розия Уктам кизи</i>	
Психолого-педагогические риски цифровой образовательной среды	154
<i>Рузметова Хилола Абдушариповна, Моминова Мадина Шукурулла кизи</i>	
"TALIA": система контент-генерации на основе ИИ для подготовки учителей	158
<i>Хасанов Зафар Шавкат угли</i>	



BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KASBIY NUTQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING INNOVATSION-METODIK ASOSLARI

Tuxtayeva Mehriyo Shavkatovna

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti
 O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini o'qituvchisi,
 pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Mazkur tadqiqotda bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy nutq madaniyatini shakllantirishning innovatsion-metodik asoslari yoritiladi. Unda pedagogik ta'lim jarayonida talabalarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish, muloqot madaniyatini takomillashtirish, kasbiy-pedagogik kommunikatsiya ko'nikmalarini shakllantirish masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, muammoli ta'lim, rolli o'yinlar, debat, loyiha metodi va refleksiv yondashuvlar orqali bo'lajak o'qituvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijasida kasbiy nutq madaniyatini shakllantirishga xizmat qiluvchi samarali metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: bo'lajak o'qituvchi, kasbiy nutq madaniyati, nutqiy kompetensiya, pedagogik muloqot, kommunikativ kompetensiya.

Abstract: This study examines the innovative and methodological foundations for developing professional speech culture among future teachers. It analyzes the development of students' oral and written speech in the process of pedagogical education, the improvement of communication culture, and the formation of professional pedagogical communication skills. The study also considers the possibilities of developing future teachers' speech competence through interactive methods, information and communication technologies, problem-based learning, role-playing, debates, project-based learning, and reflective approaches. As a result, effective methodological recommendations aimed at developing professional speech culture are proposed.

Key words: future teacher, professional speech culture, speech competence, pedagogical communication, communicative competence.

Аннотация: В данном исследовании раскрываются инновационно-методические основы формирования профессиональной культуры речи у будущих учителей. В работе анализируются вопросы развития устной и письменной речи студентов в процессе педагогического образования, совершенствования культуры общения, а также формирования навыков профессионально-педагогической коммуникации. Кроме того, рассматриваются возможности развития речевой компетентности будущих учителей посредством интерактивных методов, информационно-коммуникационных технологий, проблемного обучения, ролевых игр, дебатов, проектного метода и рефлексивных подходов. В результате исследования разрабатываются эффективные методические рекомендации, направленные на формирование профессиональной культуры речи.

Ключевые слова: будущий учитель, профессиональная культура речи, речевая компетентность, педагогическое общение, коммуникативная компетентность.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimida o'qituvchining kasbiy mahorati nafaqat uning bilim darajasi, balki nutq madaniyati, muloqotga kirisha olish qobiliyati, fikrni aniq, ravon va ta'sirchan ifodalash ko'nikmasi bilan ham belgilanadi. Ayniqsa, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida kasbiy nutq madaniyatini shakllantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki o'qituvchi ta'lim jarayonida o'quvchiga bilim berish bilan birga, uning tafakkuri, dunyoqarashi, axloqiy qarashlari va kommunikativ madaniyatining shakllanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Kasbiy nutq madaniyati o'qituvchining og'zaki va yozma nutqining adabiy til me'yorlariga mosligi, fikrni mantiqiy izchillikda bayon eta olishi, pedagogik vaziyatga mos so'z tanlashi, tinglovchiga ta'sir o'tkaza olishi hamda muloqot jarayonida o'dob, aniqlik va ifodaviylikka rioya qilishi bilan belgilanadi. Shuning uchun pedagogik ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarni faqat nazariy bilimlar bilan qurollantirish yetarli emas. Ularda kasbiy nutq, pedagogik muloqot, auditoriya bilan ishlash, savol-javob olib borish, bahs-munozarada o'z fikrini asoslash kabi amaliy ko'nikmalarni ham shakllantirish zarur.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, hozirgi ta'lim jarayonida innovatsion metodlar, interfaol texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya vositalari, muammoli ta'lim, debat, rolli o'yinlar, loyiha metodi va reflektiv yondashuvlardan foydalanish bo'lajak o'qituvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda katta imkoniyat yaratmoqda. An'anaviy ta'lim usullarida talaba ko'proq tinglovchi sifatida ishtirok etsa, innovatsion metodlar uni faol fikrlashga, mustaqil mulohaza yuritishga, o'z fikrini erkin va asosli ifodalashga undaydi.

Shu bois bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy nutq madaniyatini shakllantirishning innovatsion-metodik asoslarini o'rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Mazkur mavzuni tadqiq etish orqali pedagogik ta'lim jarayonida nutq madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali metodlar, mashqlar, texnologiyalar va metodik tavsiyalarni ishlab chiqish mumkin. Bu esa kelajakda malakali, madaniyatli, kommunikativ jihatdan yetuk va kasbiy faoliyatga tayyor o'qituvchilarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy nutq madaniyatini shakllantirish masalasi tilshunoslik, pedagogika va metodika fanlari kesishgan muhim ilmiy yo'nalishlardan biridir.

N.Mahmudov, A.Rafiyev va I.Yo'ldoshevlarning "Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish" nomli darsligida nutq madaniyati, yozma savodxonlik, matn yaratish, fikrni aniq va mantiqiy ifodalash, rasmiy hamda kasbiy muloqot me'yorlariga rioya qilish masalalari keng yoritilgan. Mazkur manbada nutq madaniyati faqat grammatik to'g'rilik bilan cheklanmasligi, balki fikrning aniqligi, uslubiy mosligi, mantiqiy izchilligi va kommunikativ maqsadga muvofiqligi bilan ham belgilanadi. Bu qarash bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayoni uchun ayniqsa muhimdir, chunki o'qituvchi dars jarayonida nafaqat bilim beruvchi, balki namunali nutq egasi, muloqot tashkilotchisi va tarbiyaviy ta'sir ko'rsatuvchi shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun mazkur adabiyotda ilgari surilgan fikrlar bo'lajak pedagoglarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish, dars jarayonida adabiy til me'yorlariga amal qilish, o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatish hamda pedagogik nutqning aniqlik, ravonlik va ta'sirchanlik kabi sifatlarini shakllantirishda nazariy asos bo'lib xizmat qiladi ^[1]. Darslikda yozma nutq savodxonligi, matn yaratish va ish yuritish madaniyatiga oid nazariy ma'lumotlar hamda mashq-topshiriqlar berilgani qayd etilgan.

Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy nutq madaniyatini shakllantirishda pedagogik muloqot, shaxsiy-kasbiy rivojlanish va kommunikativ kompetensiya masalalari ham alohida ahamiyatga ega. L.M.Mitining o'qituvchining kasbiy rivojlanishiga oid tadqiqotlarida pedagog shaxsining kasbiy shakllanishi, o'zini rivojlantirish, kasbiy refleksiya, ijodiy o'zini namoyon qilish va pedagogik faoliyatda psixologik tayyorgarlik masalalari tahlil qilinadi. Ushbu yondashuv bo'lajak o'qituvchilarning nutq madaniyatini shakllantirishda juda muhim, chunki kasbiy nutq faqat til vositalarini to'g'ri ishlatish emas, balki auditoriyani tushunish, pedagogik vaziyatga mos muloqot uslubini tanlash, o'quvchilar bilan samimiy va samarali aloqa o'rnatish, fikrni ruhiy-pedagogik jihatdan ta'sirchan yetkazish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi. Mitina qarashlariga ko'ra, o'qituvchining kasbiy rivojlanihi uning shaxsiy faolligi, reflektiv tafakkuri va kommunikativ tayyorgarligi bilan bog'liq. Demak, innovatsion metodlar - rolli o'yinlar, debat, muammoli vaziyatlar, loyiha metodi, trening va reflektiv mashg'ulotlar - bo'lajak o'qituvchilarning nafaqat nutqiy ko'nikmalarini, balki kasbiy o'zini tutish, auditoriya bilan ishlash va pedagogik ta'sir ko'rsatish malakalarini ham rivojlantiradi ^[2]. Mitina asarlarida o'qituvchining kasbiy rivojlanishi, kasbiy mehnat psixologiyasi, ijodiy o'zini namoyon qilish va rivojlantiruvchi texnologiyalar masalalari yoritilgani ko'rsatiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy nutq madaniyatini shakllantirishga qaratilgan zamonaviy pedagogik, kommunikativ, kompetensiyaviy va innovatsion yondashuvlar tashkil etadi. Tadqiqotda kasbiy nutq madaniyati bo'lajak o'qituvchining pedagogik faoliyatga tayyorgarligini belgilovchi muhim omil sifatida qaraladi. Chunki o'qituvchi o'z kasbiy faoliyatida bilim berish bilan birga, o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatishi, fikrini aniq, ravon, mantiqiy va ta'sirchan ifodalay olishi lozim.

Tadqiqot jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning og'zaki va yozma nutqi, pedagogik muloqot madaniyati, auditoriya bilan ishlash qobiliyati, savol-javob olib borish, bahs-munozarada qatnashish, o'z fikrini asoslash va nutqiy vaziyatga mos ravishda so'z tanlash ko'nikmalari o'rganiladi. Shu asosda kasbiy nutq madaniyatini shakllantirishda innovatsion metodlardan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Tadqiqotda quyidagi metodologik yondashuvlarga tayaniladi.

*Birinchi*dan, kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning nutqiy, kommunikativ va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari o'rganiladi. Bu yondashuv talabalarning faqat nazariy bilimlarni egallashi bilan cheklanmay, balki ularni amaliy nutqiy faoliyatda qo'llay olishiga e'tibor qaratadi.



Ikkinchidan, kommunikativ yondashuv orqali talabalarning muloqotga kirishish, suhbatni boshqarish, tinglovchiga ta'sir ko'rsatish, pedagogik vaziyatlarda to'g'ri nutq uslubini tanlash kabi ko'nikmalari tahlil qilinadi. Bu yondashuv bo'lajak o'qituvchilarda dars jarayonida o'quvchilar bilan samarali aloqa o'rnatish malakasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, innovatsion-metodik yondashuv asosida interfaol metodlar, rolli o'yinlar, debat, loyiha metodi, muammoli ta'lim, refleksiv mashqlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining kasbiy nutq madaniyatini rivojlantirishdagi samaradorligi o'rganiladi. Ushbu metodlar talabalarning faol ishtirokini ta'minlaydi, mustaqil fikrlashini kuchaytiradi va nutqiy faolligini oshiradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy nutq madaniyatini shakllantirish jarayoni pedagogik, metodik va kommunikativ jihatdan tahlil qilindi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, kasbiy nutq madaniyati faqat to'g'ri talaffuz qilish yoki grammatik jihatdan savodli gapirish bilan cheklanmaydi. U o'qituvchining fikrni aniq, ravon, mantiqiy, ta'sirchan va pedagogik vaziyatga mos tarzda ifodalash qobiliyatini ham o'z ichiga oladi. Shu sababli bo'lajak o'qituvchining nutqiy tayyorgarligi uning umumiy kasbiy kompetensiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, pedagogik ta'lim jarayonida ayrim talabalar nazariy bilimga ega bo'lsa-da, o'z fikrini auditoriya oldida erkin bayon qilishda qiynaladi. Bunday holat, ayniqsa, seminar mashg'ulotlari, taqdimotlar, bahs-munozaralar va pedagogik amaliyot jarayonida yaqqol namoyon bo'ladi. Masalan, talaba dars mavzusini yaxshi tushungan bo'lishi mumkin, ammo uni o'quvchilarga sodda, tushunarli va izchil tarzda yetkazib bera olmasa, ta'lim samaradorligi pasayadi. Demak, bo'lajak o'qituvchini tayyorlashda nutq madaniyatini alohida metodik tizim asosida shakllantirish zarur.

Kommunikativ kompetensiya nazariyalarida nutqiy faoliyat insonning ijtimoiy muloqotdagi asosiy vositasi sifatida qaraladi. D. Hymes kommunikativ kompetensiya tushunchasini tilni bilish bilangina emas, balki undan muayyan vaziyatda to'g'ri foydalana olish qobiliyati bilan bog'laydi^[3]. Bu qarash bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayoni uchun nihoyatda muhimdir. Chunki o'qituvchi faqat adabiy til qoidalarini bilishi emas, balki o'quvchining yosh xususiyati, bilim darajasi, ruhiy holati va dars vaziyatiga qarab nutq uslubini moslashtira olishi kerak.

Masalan, boshlang'ich sinf o'quvchilariga murakkab ilmiy terminlar orqali tushuntirish samarali bo'lmasligi mumkin. Bunday vaziyatda o'qituvchi sodda, obrazli, hayotiy misollar orqali gapirishi kerak. Aksincha, yuqori sinf yoki oliy ta'lim auditoriyasida nutq ilmiyroq, dalillarga boy va tahliliy bo'lishi zarur. Demak, kasbiy nutq madaniyatining muhim belgisi - nutqni auditoriyaga moslashtira olishdir (1-jadval).

1-jadval: Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy nutq madaniyatini shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar va ularning natijalari

No	Omil	Mazmuni	Natijaga ta'siri
1	Til me'yorlarini bilish	Talaffuz, imlo, uslub va grammatik qoidalarga rioya qilish	Nutqning savodli va adabiy bo'lishini ta'minlaydi
2	Kommunikativ faollik	Suhbat, bahs, savol-javob va taqdimotlarda faol ishtirok etish	Talabaning erkin fikrlash va gapirish qobiliyatini rivojlantiradi
3	Pedagogik vaziyatga moslashish	Nutqni auditoriya, mavzu va vaziyatga moslashtirish	O'qituvchi nutqining ta'sirchanligini oshiradi
4	Innovatsion metodlardan foydalanish	Debat, rolli o'yin, loyiha, muammoli ta'lim, AKT	Talabaning amaliy nutqiy ko'nikmalarini kuchaytiradi
5	Refleksiya	O'z nutqini tahlil qilish va xatolarni tuzatish	Nutqiy o'sishni ongli boshqarishga yordam beradi

Jadvaldan ko'rinadiki, kasbiy nutq madaniyati birgina nazariy bilimlar orqali shakllanmaydi. U doimiy mashq, amaliy faoliyat, muloqot, tahlil va o'z ustida ishlash orqali rivojlanadi. Shu nuqtayi nazardan, innovatsion metodlar bo'lajak o'qituvchilarning nutqiy faolligini oshirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot jarayonida interfaol metodlardan foydalanish kasbiy nutq madaniyatini shakllantirishda ijobiy natija berishi aniqlandi. Jumladan, debat metodi talabalarda fikrni dalillash, qarama-qarshi fikrga munosabat bildirish, dalil va misollar asosida nutq qurish ko'nikmasini rivojlantiradi. Masalan, "O'qituvchining nutq madaniyati ta'lim sifatiga ta'sir qiladimi?" mavzusida debat tashkil etilganda talabalar o'z fikrlarini asoslashga, dalil keltirishga va mantiqiy xulosa chiqarishga harakat qiladi. Natijada ularning og'zaki nutqi, tanqidiy fikrlashi va auditoriya oldida chiqish qilish ko'nikmasi rivojlanadi.

Rolli o'yinlar esa pedagogik vaziyatlarda to'g'ri muloqot qilish malakasini shakllantiradi. Masalan, "O'qituvchi va intizomsiz o'quvchi", "O'qituvchi va ota-ona suhbat", "Dars jarayonida savol-javobni boshqarish" kabi rolli vaziyatlar orqali talabalar real pedagogik muloqotga tayyorlanadi. Bunday mashqlar davomida talaba nafaqat to'g'ri gapirishni, balki ohang, muomala, sabr, muloyimlik va pedagogik taktni ham o'zlashtiradi.

M.Canale va M.Swain kommunikativ kompetensiyani grammatik, sotsiolingvistik va strategik kompetensiyalar bilan bog'laydi [4]. Bu fikr bo'lajak o'qituvchilarning nutq madaniyatini shakllantirishda juda muhim. Chunki o'qituvchi grammatik jihatdan to'g'ri gapirish bilan birga, ijtimoiy vaziyatni ham hisobga olishi, suhbatdoshga mos uslub tanlashi va muloqotda yuzaga keladigan muammolarni strategik tarzda bartaraf eta olishi kerak.

Masalan, o'quvchi darsda mavzuni tushunmaganini aytsa, o'qituvchi: "Sen buni bilishing kerak edi", deb javob bersa, bu pedagogik jihatdan samarasiz bo'ladi. Buning o'rniga: "Keling, bu fikrni yana bir oddiy misol bilan tushuntiramiz", deyishi o'quvchiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu yerda nutq madaniyati faqat so'z tanlash emas, balki pedagogik munosabatni to'g'ri ifodalash vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, loyiha metodi ham bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy nutq madaniyatini rivojlantirishda samarali hisoblanadi. Loyiha asosida ishlash jarayonida talabalar ma'lumot to'playdi, uni qayta ishlaydi, taqdimot tayyorlaydi va guruh oldida himoya qiladi. Bu jarayonda ular yozma va og'zaki nutqdan kompleks foydalanadi. Masalan, "Zamonaviy o'qituvchi nutqining asosiy xususiyatlari" mavzusida loyiha tayyorlagan talaba avval ilmiy manbalarni tahlil qiladi, keyin asosiy fikrlarni tizimlashtiradi, slayd tayyorlaydi va yakunda auditoriya oldida chiqish qiladi. Bu esa uning mantiqiy fikrlash, nutqni rejalashtirish, terminlardan to'g'ri foydalanish va auditoriya bilan aloqa o'rnatish malakasini oshiradi.

Muammoli ta'lim metodi ham talabalarning nutqiy faolligini kuchaytiradi. Bunda o'qituvchi tayyor ma'lumot bermaydi, balki muammoli vaziyat yaratadi. Masalan: "Agar o'quvchi darsda o'qituvchi fikriga ochiq e'tiroz bildirsa, o'qituvchi qanday nutqiy strategiyani tanlashi kerak?" Talabalar ushbu vaziyatni tahlil qiladi, turli javob variantlarini taklif etadi va o'z fikrini asoslaydi. Natijada ular real kasbiy vaziyatlarda nutqdan ongli va maqsadli foydalanishga o'rganadi.

L. S. Vygotskiy tafakkur va nutq o'zaro bog'liq holda rivojlanishini ta'kidlaydi [5]. Ushbu nazariya tadqiqot mavzusi uchun metodologik jihatdan muhim ahamiyatga ega. Chunki bo'lajak o'qituvchining nutqini rivojlantirish uning tafakkurini ham rivojlantirish bilan bevosita bog'liq. Talaba fikrni chuqur anglamasa, uni ravon ifodalay olmaydi. Demak, nutq madaniyatini shakllantirishda faqat talaffuz yoki grammatik mashqlar emas, balki tahliliy fikrlash, savol qo'yish, xulosa chiqarish va dalillash ko'nikmalarini ham rivojlantirish zarur.

Tadqiqot davomida shuni ko'rish mumkinki, refleksiv yondashuv bo'lajak o'qituvchilar nutqini takomillash-tirishda alohida o'rin tutadi. Refleksiya orqali talaba o'z nutqini baholaydi, xatolarini ko'radi va ularni tuzatish yo'llarini belgilaydi. Masalan, talaba dars fragmentini tushuntirib bergandan so'ng quyidagi savollarga javob beradi: "Men fikrimni aniq yetkazdimmi?", "Nutqimda ortiqcha so'zlar bo'ldimi?", "Auditoriya meni tushundimi?", "Men pedagogik ohangni saqlay oldimmi?" Bunday o'z-o'zini tahlil qilish kasbiy rivojlanishning muhim sharti hisoblanadi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, innovatsion metodlar an'anaviy ma'ruza va oddiy savol-javob shakliga nisbatan talabalarning nutqiy faolligini kuchliroq rag'batlantiradi. Chunki bu metodlarda talaba tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida qatnashadi. Aynan faol ishtirok jarayonida kasbiy nutq ko'nikmalari shakllanadi.

J. Harmer ta'lim jarayonida o'quvchi yoki talabani faol muloqotga jalb qilish nutqiy kompetensiyani rivojlantirishning muhim sharti ekanini ta'kidlaydi [6]. Bu fikr bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida ham dolzarbdir. Chunki o'qituvchi kasbida nutq passiv bilim emas, balki amaliy faoliyat vositasidir. Talaba ko'p eshitish orqali emas, balki ko'p gapirish, tushuntirish, savol berish, munozara qilish va tahlil qilish orqali kasbiy nutq madaniyatini egallaydi.

Tadqiqot asosida quyidagi natijalarga kelindi.

*Birinchi*dan, bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy nutq madaniyatini shakllantirish uchun nazariy va amaliy mashg'ulotlar uyg'un tashkil etilishi zarur. Faqat nazariy ma'lumot berish yetarli emas; talabalar muntazam ravishda taqdimot, debat, rolli o'yin va pedagogik vaziyatlar orqali nutqiy faoliyatga jalb qilinishi kerak.

*Ikkinchi*dan, kasbiy nutq madaniyatini rivojlantirishda auditoriya oldida chiqish qilish mashqlari muhim ahamiyatga ega. Bunday mashqlar talabada o'ziga ishonch, nutq ravonligi, mantiqiy izchillik va pedagogik ohangni shakllantiradi. Masalan, har bir talaba 5-7 daqiqalik mini-dars o'tishi va undan so'ng guruh tomonidan tahlil qilinishi mumkin. Bu jarayonda talabaning nutq tezligi, talaffuzi, terminlardan foydalanishi, savol berish uslubi va auditoriya bilan aloqasi baholanadi.

*Uchinchi*dan, yozma nutqni rivojlantirish ham kasbiy nutq madaniyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Bo'lajak o'qituvchi dars ishlanmasi, konspekt, taqriz, tavsifnoma, metodik ko'rsatma va ilmiy maqola yozishda adabiy til me'yorlariga amal qilishi kerak. Shu sababli yozma topshiriqlar ham kasbiy nutqni shakllantirish jarayoniga kiritilishi zarur.



To'rtinchidan, talabalarda pedagogik etikaga mos nutqni shakllantirish zarur. O'qituvchi nutqi hurmatli, muloyim, aniq va tarbiyaviy ta'sirga ega bo'lishi kerak. Masalan, "Sen noto'g'ri aytding" o'rniga "Bu fikrni yana boshqacha yo'l bilan ko'rib chiqamiz" deyish pedagogik jihatdan to'g'riroq hisoblanadi. Bunday yondashuv o'quvchining faolligini pasaytirmaydi, aksincha, uni fikrlashga undaydi.

Richards va Rodgers ta'lim metodlarini tahlil qilar ekan, samarali metodika o'quvchini faol kommunikativ vaziyatga olib kirishi, til va nutqni real muloqot vositasi sifatida qo'llashga yo'naltirishi kerakligini ta'kidlaydi [7]. Ushbu fikr bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy nutq madaniyatini shakllantirishda ham asosiy metodik tamoyil bo'lib xizmat qiladi. Chunki nutq madaniyati darslikdagi nazariy ta'rifni yodlash orqali emas, balki real muloqotga yaqinlashtirilgan mashg'ulotlar orqali shakllanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Umumiy natijalar shuni ko'rsatadiki, bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy nutq madaniyatini shakllantirish uchun quyidagi metodik shartlar zarur:

birinchidan, ta'lim jarayonida interfaol metodlardan muntazam foydalanish;

ikkinchidan, talabalarning og'zaki va yozma nutqini kompleks rivojlantirish;

uchinchidan, pedagogik vaziyatlarga asoslangan nutqiy mashqlarni ko'paytirish;

to'rtinchidan, refleksiv tahlil va o'z-o'zini baholashni yo'lga qo'yish;

beshinchidan, nutq madaniyatini baholash mezonlarini aniq belgilash.

Tadqiqot natijalari bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy nutq madaniyatini shakllantirish innovatsion-metodik yondashuv asosida amalga oshirilganda samaraliroq bo'lishini ko'rsatadi. Debat, rolli o'yin, loyiha metodi, muammoli ta'lim, AKT va refleksiv mashqlar talabalarning nutqiy faolligini oshiradi, ularni real pedagogik muloqotga tayyorlaydi va kasbiy kompetensiyasini rivojlantiradi. Shunday qilib, kasbiy nutq madaniyatini shakllantirish bo'lajak o'qituvchining pedagogik mahorati, kommunikativ tayyorgarligi va shaxsiy-kasbiy yetukligini ta'minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mahmudov N., Rafiyev A., Yo'ldoshev I. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish. - Toshkent: Cho'lpon, 2013.
2. Mitina L. M. Psixologiya truda i professionalnogo razvitiya uchitelya. - Moskva: Akademiya, 2004.
3. Hymes D. On Communicative Competence // Pride J. B., Holmes J. Sociolinguistics. - Harmondsworth: Penguin Books, 1972. - P. 269-293.
4. Canale M., Swain M. Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing // Applied Linguistics. - 1980. - Vol. 1, № 1. - P. 1-47.
5. Vygotsky L. S. Thought and Language. - Cambridge, MA: MIT Press, 1986.
6. Harmer J. The Practice of English Language Teaching. - 5th ed. - Harlow: Pearson Education Limited, 2015.
7. Richards J. C., Rodgers T. S. Approaches and Methods in Language Teaching. - 3rd ed. - Cambridge: Cambridge University Press, 2014.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.